

ALISHER NAVOIYNING TURKIY DEVONLARIDAGI YETAKCHI JANR

A'zamjonova Dilnavozxon G'ulomjon qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili 2-bosqich talabasi

e-mail, azamjonovadilnavoz8@gmail.com

+998973354150

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20078177>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning turkiy devonlarida yetakchi o'rin tutgan she'riy janrlardan biri — g'azal janri tahlil qilinadi. Tadqiqotda Navoiy g'azallarining mavzu doirasi, badiiy-estetik xususiyatlari, obrazlar tizimi hamda til va uslub jihatlarini ilmiy asosda yoritiladi. G'azal janrining shoir ijodidagi ustuvorligi, uning insoniy kechinmalar, ishqiy-falsafiy qarashlar va tasavvufiy g'oyalarni ifodalashdagi o'rni ochib beriladi. Maqolada Navoiy g'azallarining turkiy adabiyot taraqqiyotidagi ahamiyati hamda ularning keyingi davr adabiyotiga ko'rsatgan ta'siri ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Navoiy merosini chuqurroq anglash va turkiy she'riyatdagi janrlar tizimini o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: “Navoiy”, lirika, kulliyot, devon, “Xazoyin-ul maoniy”, “Ilk devon”, “Oqquyunli muhlislar devoni”, “Badoye ul bidoya”, “Navodir un-nihoya”, g'azal, she'riy janrlar.

Buyuk mutafakkir, she'riyat mulkining sultoni Navoiy ijodi bamisoli cheksiz bir ummon, ushbu ummonga qancha chuqurroq sho'ng'isangiz shuncha ko'p inju terasiz. Shu sababdan ham Navoiy asarlari mana 6 asrdan buyon o'z qiymatini, betakrorligini yo'qotmagan. Navoiy asarlarini qanchalik ko'p o'qigan sari, o'rgangan sari, shuncha ko'p hayratga tushadi kishi. Alisher Navoiy o'zbek badiiy tafakkurini jahon badiiy tafakkuri darajasiga olib chiqish bilan o'zining beqiyos, favqulodda ijodiy salohiyat sohibi, ulug' mutafakkir, benazir shoir sifatida mashhurdir. Bu bilan u jahon adabiyotining yirik namoyandalari qatoridan o'ziga munosib joy egalladi. Alisher Navoiy ikki tilda mukammal ijod qilgan. Turkiy tilda “Navoiy”, forsiy tilda esa “Foniy” taxalluslarini qo'llagan.

Navoiyning turkiy devonlari:

“Ilk devon” – 1465-1466 yillar – devon uni nashrga tayyorlagan adabiyotshunos olim Hamid sulaymonov tomonidan shartli ravishda shunday nomlangan bo'lib, 391 g'azal, 42 ruboiy, 1 mustazod, 1 muxammas – jami 434 sh'erdan iborat. Bundan tashqari shuni aytish lozimki, bu devonda birinchi g'azal, ikkinchi navbatda, mustazod, keyin muxammas va oxirgi janr sifatida ruboiy keltirilgan. Ushbu devonning hozirgacha fanga faqat 2 qo'lyozma nusxasi mavjud bo'lib, birinchisi Sultonali Mashhadiy tomonidan 1465-1466- yilda ko'chirilgan qo'lyozma Sank-Peterburg shahrida, Rossiya Milliy kutubxonasida Dorn 564 inventor raqami ostida saqlanadi. Ikkinchisi esa Qozon shahrida saqlanuvchi qo'lyozma 1567-1568-yillarda Mahmud kotib tomonidan ko'chirilgan bo'lib, Qozon davlat universitetining ilmiy kutubxonasida 1742-inventor raqami bilan saqlanadi.

“Oqquyunli muhlislar devoni” – 1466-1471-yillar – devon Anisiy taxallusi bilan ijod qilgan shoir va xattot Abdurahim ibn Abdurahmon Xorazmiy tomonidan ko'chirilgan bo'lib, unda jami 229 she'r bor: 224 g'azal, 1 mustazod, 3 muxammas va 1 tarji'band. Devondagi janrlar ketma-ketligi quyidagicha: 1- g'azal, 2- mustazod, 3- muxammas va oxirgisi tarji'band. Ushbu devonning hozirga qadar faqat bitta qo'lyozmasi mavjud bo'lib, u Qohira shahridagi Misr milliy kutubxonasida Lit.Turc. 68 raqami ostida saqlanmoqda.

“Badoe ul – bidoya” 1470-1476 yillar - Alisher Navoiy devonni g‘azallar bilan boshlash, g‘azallarni 28 harf emas, balki 32 harf bilan tugallash zarurligi, devonga dastavval Allohga hamd yoki Payg‘ambarga na’t mavzusidagi g‘azallarni joylashtirish, g‘azallarga ma’rifat va mav’iza mavzulariga doir baytlar kiritish, g‘azal matla’sida keltirilgan fikrni maqtagacha rivojlantirib borishni nazarda tutadi. Alisher Navoiyning mazkur devoni aynan yuqoridagi qonun-qoidalarga amal qilingan holda tartib berilgan bo‘lib, unda 11 janrga oid jami 1046 ta she’r mavjud. Devonga she’rlar quyidagi tartibda joylashtirilgan: g‘azal - 777 ta, mustazod -3 ta, muxammas - 5 ta, musaddas - 2 ta, tarji’band - 3 ta, qit’a - 46 ta, ruboiy - 85 ta, lug‘z - 10 ta, muammo - 52 ta, tuyuq - 10 ta, fard - 53 ta.

“Navodir un – nihoya” - 1483- yil – ushbu devon matni filologiya fanlari nomzodi M.Rahmatullayeva tomonidan nashrga tayyorlangan bo‘lib, jami 862 she’rdan iborat. Ahamiyatlisi shundaki, u tayyorlagan nashrdan o‘rin olgan she’rlarning barchasi g‘azal janriga oid. Lekin Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan nusxasida esa g‘azaldan tashqari, yana mustazod, tarji’band, qit’a, ruboiy, lug‘z, muammo va tuyuq kabi janrlar ham mavjud bo‘lib, jami 693ta she’rni tashkil qiladi.

“Xazoyin ul-maoniy” - 1492-1498 yillar – to‘rt devondan iborat:

- a) “G‘aroyib us-sig‘ar” – “Bolalik g‘aroyibotlari”.
- b) “Navodir ush- shabob” – “ Yigitlik nodirliklari”.
- d) “Badoyi ul-vasat” – “ O‘rta yosh go‘zalliklari”.
- e) “Favoyid ul-kibar” – “Keksalik foydalari”.

Alisher Navoiyning devonlaridagi yetakchi janr – g‘azal hisoblanadi. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova va O.Davlatovlarning “Navoiyshunoslik” darsligida keltirilishicha, “g‘azal” atamasi arabcha so‘z bo‘lib, oshiqona so‘z, ayollarni madh etish kabi ma’nolarni anglatadi. Alisher Navoiy g‘azallari mavzusini shartli ravishta quyidagi guruhlarga ajratgan:

- 1.Hamd g‘azallar.
- 2.Oshiqona va ishqiy mavzudagi g‘azallar
- 3.Orifona yoki tasavvufiy-falsafiy g‘azallar
- 4.Axloqiy-ta’limiy mavzudagi g‘azallar
- 5.Ijtimoiy mavzudagi g‘azallar
- 6.Na’t g‘azallar
- 7.Rindona g‘azallar
- 8.Tabiat tasviri aks etgan g‘azallar
- 9.Hajviy mavzudagi g‘azallar.

Endi esa Alisher Navoiyning turkiy devonlaridan o‘rin olgan g‘azallaridan parcha keltirib, uning g‘oyaviy va badiiy jihatlariga e’tibor bergan holda tahlil qilamiz:

Oy-u xurshidingni yig‘ ey charxi gardunkim, bu dam
 Hamdam ul ol chehralig‘ hurshid paykardur manga.
 Sarvni o‘rtab, sumanni yelga ber, ey bog‘bon,
 Kim bukun xamsuhbat ul sarvi sumanbardur manga.
 Qo‘rqaram xirmon sahobin yopmag‘ay fahm etsa charx,
 Kim shabiston mehr yamidin munavvardar manga.
 Ey Navoiy, hech bilmonkim topibmen vaslini,
 Yo magarkim jumlayi dam musahhardur manga.

(“Badoye ul-bidoya” dan)

1-baytda shoir falakka murojaat qiladi: ma’shuqa chehrasi quyosh va oyga qiyoslanadi. U shu qadar chiroyliki, osmon hamuning husnini tan oladi. Badiiy san’atlardan esa tanosub (oy, xurshid), nido (ey charxi gardunkim).

2-baytda shoir: “ sarvni yonder, sumanni boshqalarga ber, menga faqat u sarvni sumanbar (hamsuhbat) bo’lsa bo’ldi”. Badiiy san’atlar: nido (ey bog’bon), istiora (sarvi sumanbardur).

3-baytda shoir falakning hasadidan qo’rqadi. Agar osmon uning baxtini ko’rsa, hasad qilishi mumkin. Bu yerda mubolag’a va tashxis kuchli.

4-baytda, ya’ni maqta’da shoir o’z taxallusini keltiradi: “Ey Navoiy”. U visolni tipganini aytadi va agar ma’shuqa istasa, butun olamni unga bo’ysundirishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bu yerda qo’llangan badiiy san’at, asosan, nido hisoblanadi.

Bu g’azalning umumiy mazmuni shundan iboratki, bu g’azal oshiqona yoki ishqiy mavzudagi g’azallar guruhiga kirib, g’azalda ishq ilohiy darajaga ko’tarilgan. Oshiq uchun ma’shuqa nafaqat go’azal yor, balki hayotning mazmuni, maqsadi va najotidir. Shoir ishqni insonni poklovchi, yuksaltiruvchi kuch sifatida tasvirleydi. G’azal badiiy jihatdan boy, tasvir vositalari rang-barang va mazmun chuqur hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, Alisher Navoiyning turkiy devonlarida g’azal janri nafaqat yetakchi, balki shoir badiiy tafakkurining eng mukammal ifoda shakli sifatida namoyon bo’ladi. Navoiy g’azallari o’zida keng va rang-barang mavzularni mujassam etib, ishqiy kechinmalar, ilohiy muhabbat, insoniy fazilatlar, hayot va borliq haqidagi falsafiy mushohadalarni chuqur badiiy umumlashtirish asosida yoritadi. Bu esa g’azal janrining shoir ijodida oddiy lirik shakl emas, balki murakkab ma’naviy-estetik tizim darajasiga ko’tarilganini anglatadi. Navoiy g’azallarida an’anaviy Sharq she’riyati unsurlari bilan bir qatorda yangicha badiiy yondashuv, individual uslub va poetik tafakkur uyg’unlashgan. Shoir g’azal janrining ichki imkoniyatlarini kengaytirib, unda obrazlilik, ramziylik, ma’no qatlamlarining ko’pligi va badiiy mukammallikni yuqori bosqichga olib chiqadi. Ayniqsa, tasavvufiy g’oyalar bilan ishqiy motivlarning uyg’unlashuvi Navoiy g’azallariga falsafiy teranlik va ruhiy poklik baxsh etadi. Yana bir muhim jihat shundaki, Navoiy g’azallarida ilgari surilgan g’oyalar va badiiy tamoyillar keyingi davr turkiy adabiyotiga kuchli ta’sir ko’rsatib, ko’plab shoirlar ijodida davom ettirilgan. Demak, g’azal janri Navoiy ijodida nafaqat mukammallikka erishgan, balki butun bir adabiy maktab shakllanishiga zamin yaratgan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning turkiy devonlarida g’azal janrining yetakchi o’rin tutishi uning ijodiy merosining markaziy yo’nalishini belgilab beradi. Ushbu janr orqali shoir o’zining badiiy-estetik qarashlari, ma’naviy olami va falsafiy tafakkurini chuqur va ta’sirchan tarzda ifodalagan. Shuning uchun ham Navoiy g’azallarini o’rganish turkiy adabiyot tarixini, janrlar tizimini hamda badiiy tafakkur taraqqiyotini anglashda muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova va O.Davlatov “Navoiyshunoslik” darslik. Toshkent, 2019.
2. Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to’plami”. 30jildlik. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1987-2003.
3. Abduqodir Hayitmetov “Navoiy lirikasi”. Toshkent, Fan nashriyoti.